**Ijtimoiy trendlar.** Aholini o'sish sur'atida nisbatan sekinlashuv kuzatilmoqda. Jumladan, yer yuzidagi 86ta mamlakatda (53 ta rivojlanayotgan davlatni qo'shib hisoblaganda) tug'ilish soni aholini takror yaratish yoki o'rnini bosish uchun yetarli emas. Dunyodagi 42 ta iqtisodiy jihatdan qoloq davlatlarda esa har bir ayol kishiga o'rtacha 4 ta bola to'g'ri kelmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda bugungi kunda 6 mlrd.atrofida aholi yashamoqda, kelajakda bu ko'rsakich 7,9 mlrd. kishiga yetishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlardagi aholi sonini o'sishini 70 foizi Hindiston, Pokiston, Nigeriya, Braziliya va Indoneziya davlatlarihissasiga to'g'ri kelmoqda. Dunyoning ko'plab mintaqalarida umr ko'rish uzunligi ortib bormoqda. Jumladan, dunyo bo'yicha o'rtacha uzoq yashash 67,2 yil bo'lib, taraqqiy etgan davlatlarda bu ko'rsatkich 76,5 yil va rivojlanayotgan davlatlarda 65,4 yilni tashkil etadi. Iqtisodiy jihatdan eng qoloq davlatlarning 2/3 qismi hamonturli kasalliklarning salbiy ta'sirini o'zida sezmoqda va ularda umr ko'rish muddati 54,6 yilni tashkil etmoqda Asosiy tendensiya shundan iboratki, yer yuzida aholini keksa yoshdagilar ulushini o'sishi kuchayib bormoqda.

**Raqobat tahlili.** Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va karonaviruspandemiyasidan so'ng turizm xizmatlari bozorida raqobat muhitini yanada keskinlashgani sezilmoqda. Asosiy raqobatchilar sifatida Ozarboyjon, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi kompaniyalari bo'lib, yaqin yillarda ularning qatoriga xitoy va rus kompaniyalarini qo'shilish ehtimoli mavjud. Raqobatni keskinlashuviga turistlarning avvalgiga nisbatan qisqa muddatli turlarni afzal ko'rayotgani, pulni tejab, ehtiyotkorlik bilan sarflayotgani hamda turistlar oqimida yoshlarning ulushini ortib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Samolyot bilan qisqa masofadagi sayohatlar narx omili ta'siriga kuchli sezgirlik ko'rsatayotgan bo'lsa, uzoq masofali turlarda esa bu holat uncha sezilmayabdi.

Turistlarni turizm xizmatlari va safardan qoniqish darajasi turizm xizmatlari bozoriga ikki xil yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi, ya'ni birinchidan turistni doimiy turistga aylantirish va qayta kelishini ta'minlash, ikkinchidan boshqalarga tavsiya qilish asosida turistlar sonini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Turistlarni mamlakatga qayta kelishi, boshqalarga tavsiya qilishi, mamlakatimiz turizm salohiyatini jahon hamjamiyatidagi obro'sini oshirishuchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligini, qanday omillar ta'sir qilishini aniqlash uchun xorijiy turistlardan so'rovnoma o'tkazish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda biz tomondan O'zbekistonga tashrif buyurgan ayrim turistlardan so'rovnoma o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, safardan qoniqish darajasi bo'yicha savolga jami 152 ta respondent javob bergan bo'lib, uning ham 20 tasigina "juda yaxshi" degan javobni bergan, 24 tasi "viza olish oson", degan javobni ko'rsatishgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning 1 fevralidan qo'shimcha 45 davlatga vizasiz rejim joriy qilinishi, 15 martdan elektron viza taqdim etiladigan mamlakatlar soni oshirilishi, umumiy ro'yxatdan 90 ta davlat o'rin olishi ushbu muammoni yechish imkonini beradi. 48 ta respondent sayohatdan past darajada qoniqish olganligini aytishgan, qolgan 60 ta respondent oldingi yaxshi taassurot va boshqa sabablarni ko'rsatishgan. Bu natijalardan ko'rishimiz mumkinki, biz turizm bozorida marketingni, turizm xizmatlari sifatini oshirish uchun marketingni rivojlantirish hamda takomillashtirish masalalarini yechmas ekanmiz, mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorining barqarorligini ta'minlash so'roq ostidagi masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

Biz turizm sohasini tahliliy o'rganar ekanmiz turistlarni kelish maqsadi hamda axborot olish manbayi bo'yicha ham guruhlarga ajratib o'rganishni lozim topdik (1-jadval).

1-jadval: So'rovnomalarda qatnashgan turistlarning sayohatga chiqishlaridan maqsadi va ularning axborot olish manbalari[1]

| **Kelishidan maqsadi** | **Tarixiy/madaniy turizm** | **Sport va sog'lomlashtirish turizmi** | **Ekoturizm** | **Aholining turmush tarzini o'rganish turizmi** | **Ta'lim va malaka oshirish** | **Ziyorat va diniy turizm** | **Ijtimoiy turizm** | **Boshqalar** | **Jami** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 90 | 38 | 16 | 18 | 26 | 26 | 38 | 48 | 300 |
| **Axborot manbayi** | **Agentlik/kon.** | **TV/radio** | **O'zbekistonning elchixonasi** | **Internet ma'lumotlari** | **Nashriyotlardan** | **Oldingi turlardan** | **O'rtoqlari/ tanishlari orqali** | **Boshqalar** | **Jami** |
| | 78 | 48 | 14 | 50 | 26 | 45 | 15 | 24 | 300 |

1 Ijtimoiy so'rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Olib borilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra mamlakatimizga kelayotgan turistlarning asosiy qismi tarixiy va madaniy yodgorliklarni tomosha qilish uchun tashrif buyurmoqda. Mamlakatimizda sport va sog'lomlashtirish turizmi, ekoturizm, ziyorat va diniy turizm, gastronomik turizm, ijtimoiy turizm bo'yicha katta imkoniyatlar bo'lishiga qaramasdan mazkur yo'nalishlarda turistlarni jalb qilish muammoli holatlardan biriligicha qolmoqda. Bu sohalarda turizmni rivojlantirish mamlakatimiz turizm salohiyatini hamda turistlar sonini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadvaldan ko'rinadiki, tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati mamlakatimiz hamda uning turizm salohiyati haqidagi ma'lumotlarni agentliklardan olishmoqda, vaholanki bugungi kunda sohada ijtimoiy tarmoqlar orqali turizm xizmatlarini reklama qilish va ma'lumotlar yetkazib berish asosiy o'ringa chiqib bormoqda. Ya'ni bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda agentliklarning o'zlari ham ijtimoiy tarmoqlardan keng miqyosda foydalanishmoqda. Bundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki,ijtimoiy tarmoqlar eng arzon har qanday masshtabdagi korxona va tashkilot uchun qulay reklama qilish hamda o'z mahsulotlari haqidagi ma'lumotlarni yetkazish, iste'molchilar bilan doimiy aloqani ta'minlash vositasiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanishiga ta'sir etuvchi global trendlarni chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, ularni bevosita va bilvosita ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ularni quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

**Global xavfning O'zbekiston turizm bozoriga ta'siri.** Bugungi kunda mamlakatda turizm sohasining rivojlanishiga global ta'sirlar bevosita tahdidlar, ekologiya, turli noqulayliklar, pandemiya va h.k. oqibatida vujudga kelmoqda. Jumladan, xorijiy davlatlar tomonidan joriy qilingan cheklovlar aviaqatnovlarni to'xtatilishiga olib keldi. Mazkur holat ayrim davlatlatlarda haligacha turistlar oqimiga ta'sir qilmoqda. Shuningdek, davlatlar o'rtasida, jumladan, qo'shni davlatlar bilan chegaralarda vaqti-vaqti bilan joriy qilinayotgan cheklovlar sababli transport aloqalari hamda turistlar oqimida barqarorlik kuzatilmaydi.

Iqtisodiy noaniqlik va tahdidlar oshib borayotganligi sababli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qisqargan hamda turizm unga yondosh sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyektlariga qaror qabul qilishda iqtisodiy iroda yetishmaydi.

Ourworldindata butun jahon axborot portali mutaxassislarining prognoziga ko'ra (ourworldindata.org), COVID–19 pandemiyasining salbiy oqibatlari 2023-yilning oxiriga qadar xalqaro va mahalliy turizmga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Butun jahon turizm tashkilotining (UNWTO) ma'lumotiga ko'ra, joriy yilda turizm ko'rsatkichlari 2020-yilning natijalariga taqqoslaganda 40–60 foizgacha o'sish ehtimoli mavjud. 2019-yilning natijalariga 2024-yilga borib erishish prognoz qilinmoqda.

Mazkur holatdan chiqishda davlatlararo muvofiqlashtirishni tashkil qilish, transport aloqalarini tiklash va xavfsiz sayohat qilishni ta'minlashga ahamiyat berish lozim.

**Ekologik holat(xavf).** Iqtisod va turizmni rivojlanishi bilan bir qatorda atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylashga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Turistlar so'lim tabiat va ekologik hududlarga tashrif buyurmoqda hamda ayrim holatlarda tabiatga zarar keltirmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda turizm loyihalarini amalga oshirish, ekologik hududlarga transport vositalari bilan kirishni cheklash, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda "yashil turizm"ni amalga oshirish choralarini ko'rish lozim.

Barqaror va ma'suliyatli (sustainable & responsible) turizmga e'tiborning kuchayishi, unda turist o'z sayohati davomida ekologiya va jamiyatga zarar yetkazmaslikka e'tibor qaratadi. Bunda, tabiatga zarar yetkazmaydigan, "yashil" texnologiyalardan keng foydalanuvchi va mahalliy jamiyatga sezilarli foyda keltiruvchi turizm yo'nalishlarini tanlashni afzal ko'radilar.

Shu bilan birga, atrof-muhitni asrash bo'yicha ijtimoiy loyihalar, obodonlashtirish dasturlari, yashil turizmni "green tourism" ommalashtirish choralari yordamida ekologik xavf bartaraf etiladi.

**Moddiy-madaniy meros obyektlarini saqlab qolish.** Madaniy meros obyektlarida noqonuniy buzilish, bufer zonalarida qurilish ishlarini olib borish so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda. Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy, umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar va tarixiy mahallalarning tarixiy-madaniy qiymati, noyobligi, tabiiy landshafti va o'ziga xosligini saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.

Mazkur yo'nalishda madaniy meros obyektlarida olib borilgan noqonuniy xatti-harakatlar bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, xususan, umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya talablari hamda YuNESKO va boshqa tegishli xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini samarali bajarish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, olimlar, ekspertlar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik qilish zarur.

Turizm faoliyati, iqtisodiy faoliyat sohasi bo'lib, sayohat qilish istagidagi insonlarga bevosita xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Turistlar, bunda turli tovar va xizmatlar iste'molchilariga aylanishadi. Turizm xizmatlari turli faoliyat shakllari natijalari hisoblangan bazaviy va qo'shimcha xizmat hamda tovarlarning geterogen yig'indisini aks ettiradi. Chunki bu faoliyat turlari vaularni ko'rsatuvchi korxonalar o'zaro iste'molchi bilan birlashgan bo'lib, xo'jalik faoliyati subyektlari sifatida iqtisodiyotda o'z mavqeiga ega. Bu mamlakatning, shuningdek, alo-

hida hududning xo'jalik majmuasi tarkibini o'rganish, tarmoqlararo aloqalar va proporsiyalarning rivojlanishini ilmiy tahlil qilishda, kengaytirilgan takror ishlab chiqish jarayonlarini modellashtirish vastatistik hisobotlar tizimini tuzish maqsadlarida muhim hisoblanadi.




7-rasm: O'zbekistonda turizm sohasining mavsumiyligining holati[2]

Turizmning asosiy xususiyatlaridan biri – bu uning mavsumiyligi, ya'ni turizmda talablarning ma'lum bir vaqt mobaynida eng yuqoriliigi, ma'lum bir vaqt mobaynida talab pastligi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida 7-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlar uchun yilning aprel, may, sentyabr va oktyabr oylari qulay, ya'ni turizm mavsumi hisoblanadi, yanvar, fevral, iyul va dekabr oylari esa turizm uchunumuman noqulay hisoblanadi. Ushbu tahlil jarayonida o'rganilgan asosan tarixiy shaharlarimizdagi me'moriy yodgorliklar va obidalarni ko'rish uchun tashrif buyuradigan turistlar ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Bu tendensiya nafaqat hudud bo'yicha, balki global trendlar toifasiga ega bo'lganligi uchun uni turizm xizmatlarining eng asosiy jihatlaridan biri sifatida qarash lozim bo'ladi. Chunki, bu masalaga e'tiborsizlik va to'g'ri baho bermaslik turizm sohasida ma'lum darajada salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

2-jadval: Nomavsumiy paytda turistlarni samarali jalb qilish bo'yicha mahalliy soha ekspertlarining fikrlari[3] (%)

| Takliflar | Ha | Yo'q | Javobsiz |
|---|---|---|---|
| Mehmonxonalarva transport xizmatlarida narxlarni tushirish. | 78 | 11 | 11 |
| Diqqatga sazovor joylarni ko'rish, tarixiy va madaniy muzeylarga kirishga bo'lgan narxlarning moslashuvchanligini ta'minlash. | 64 | 23 | 13 |
| Yangi shaklga, turga ega bo'lgan xizmatlarni tashkil etish. | 76 | 23 | 1 |
| Boshqa hududlarda bo'lmagan yangi turizm hududlarini tashkil etish. | 59 | 30 | 11 |

Turizmda mavsumiylik uning turlari bo'yicha (masalan, tog'-chang'i sporti qishqi mavsumda, plyajlarda dam olish yozgi mavsumda, qishloq xo'jalik turizmi kuzgi mavsumda, tarixiy obidalarga sayrlar bahorgi mavsumlarda) ayrimlari esa mavsumiylik turizm xizmatlar bozorining xususiyatlaridan (masalan, ayrim mamlakatlar iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda turistlarni faqat bahorda qabul qilish imkoniyati mavjud bo'lsa, boshqa-

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
3 Manba: mahalliy ekspertlarning javobi asosida muallif ishlanmasi.

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

lari esa faqat qishda qabul qilishlari mumkin) kelib chiqadi. Har qanday sharoitda ham, ana shu xususiyat va turlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha ekspertlar ham yangi turizm hududlarini tashkil etishni qo'llab-quvvatlashmagan. Chunki bu harakatlar bir tomondan: ma'lum bir moliyaviy investitsiyalarni talab qilsa, ikkinchi bir tomondan esa bu yangi xizmat turlariga turmahsulot iste'molchilari hisoblangan turistlarni jalb qilish oson kechmaydi. Yangilik yoki tajribadan o'tmagan qiziqish obyektlariga intilish sust darajada bo'ladi.

Aytish joizki, turizm sohasida eng katta o'z ta'sirini o'tkazuvchi omil – bu uning mavsumiyligidir. Demak, mavsum bo'lmagan vaqtda turizm talablarining oqimlarini tebranishini turg'un holatda saqlab qolish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishimiz lozim:

- yoshlarbop tadbirlar, turli dasturli tadbirlarni, o'ziga xos festivallarni o'tkazilishiga;
- diniy va ziyorat turizmga ko'proq e'tibor berilishiga (bunda mavsum degan tushunchaga kam ahamiyat beriladi);
- ma'lum bir sohalar bo'yicha olimlar va tadqiqotchi ekspertlar uchun ilmiy anjumanlar, ilmiy tadbirlarni, MICE turizmnitashkil etilishiga;
- teatrni, san'atni, folklorni xush ko'ruvchilarga maxsus tadbirlarni, ya'ni milliy cholg'u asboblar bo'yicha tanlovlar, kartina ko'rgazmalari, teatr, festivallari,"Navro'z" sayillari,hosil bayramlari va umuman turli ommaviy tadbirlarni tashkil etilishi va boshqalarga e'tiborni qaratishimiz lozim.

Turizm sohasiga xizmat qiluvchi joylashtirish va tashish xizmatlari hisobidan turmahsulot narxlarini tushirish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Chunki nomavsumiy paytda, ya'ni qishgi mavsumda elektr energiyaga, xonani isitish xizmatlariga, kommunal xizmatlariga bo'lgan tariflar ham o'sib boradi. Shuning uchun ham ayrim ekspertlar buni ma'qullashmagan, lekin diqqatga sazovor joylarni ko'rishga, tarixiy-madaniy muzeylarga kirishga, har xil festivallar, karnavallar va xalq bayramlarini tomosha qilishda maxsus chegirmalar berilishi maqsadga muvofiq, deyilgan.

O'zbekistonda turizm mahsulotlarini mamlakatimizga tashrif buyuradigan turistlarning yoshiga yoki boshqa kategoriyalariga qarab yo'naltirish bo'yicha ekspertlar quyidagi fikrlarni berishgan. Agar 56 foiz ekspertlar yoshi katta turistlarni ko'proq nomavsumiy paytda jalb qilish kerakligini ta'kidlashsa, 34 foiz bu fikrga qarshi bo'lganlar, chunki ularning ta'kidlashicha bizning hududimizga tashrif buyuruvchilarning aksariyat qismi 50 yoshdan oshganlarga to'g'ri keladi.

3-jadval: Turizm mahsulotlari mavqeiga ta'sir etuvchi omillar[4]

| | |
|---|---|
| Siyosiy | • Mamlakatdagi siyosiy vaziyat.<br>• Kriminal hodisalar.<br>• Davlat organlari tomonidan o'rnatilgan nazorat. |
| Maishiy | • Turizm bazalari va shu kabi joylarda tozalik va sanitariya-gigienani yuqoriligi.<br>• Turizm markazlaridagi turistlar soni.<br>• Tabiat, atrof-muhit va shahar landshaftining o'ziga jalb qilish xususiyati. |
| Iqtisodiy | • Ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati va narxlarning o'zaro mosligi. |
| Ijtimoiy-madaniy | • Mahalliy jamiyatning o'ziga xos xususiyati va madaniyati.<br>• Milliy san'at, hunarmandchilik va urf-odatlarning o'ziga xosligi.<br>• Mahalliy aholining ahilligi. |
| Infratuzilmaviy | • Kommunal xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi.<br>• Transport xizmatlarini standartlarga muvofiqligi.<br>• Boshqa turdagi obyektlar va xizmatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi. |

Bizning fikrimizcha, turizm xizmatlar bozorida turizm mahsulotlarini samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning imiji muhim ahamiyatga ega. Turizm mahsulotlari imijiga ta'sir kiluvchi omillar esa quyidagilardan iborat: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o'rtasidagi tili, dini, millati bo'yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo'lmagan me'moriy qurilishlar va boshqalar. Yuqoridagi fikrlarni umumiylashtirib biz bu omillarni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, maishiy va infratuzilmaviy omillar ko'rsatgichlari bilan belgiladik (3-jadval).

Mamlakat turizm sohasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida 2021-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar va sohada ishlovchi mutaxassislar bilan suhbat va tadqiqotlar o'tkazildi. Natijada:

- uzoq xorijdan keluvchi turistlarning umumiy xarajatlarining 40–45 foizi xalqaro aviachiptalarga sarflanishi;
- sohada raqobatbardoshlikni oshirish zarurligi;

4 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- ayrim hududlarda muhandislik infratuzilmasining eskirishi (elektr ta'minoti, suv ta'minoti, tozalash inshootlarini, transport tarmoqlarini gaz bilan ta'minlash, suvoqava va b.) sababli uni modernizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj mavjudligi;
- magistral va ichki avtomobil yo'llari ta'mirtalab holatdaligi va turizm obyektlarida infratuzilma qayta ta'mirni talab qilishi;
- turizm sohasiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga zaruriyat borligi;
- kichik, o'rta va yirik korxonalar uchun turizm sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun imtiyozli kredit liniyalariga talab mavjudligi,
- turizm bozorida xalqaro va uzoq muddatli loyihalar kamligi;
- narx/sifat mezonlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslanganda joylashtirish va transport vositalarida xizmat ko'rsatish narxlari yuqoriligi;
- turizm sohasini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan ehtiyojni saqlanib qolayotganligi;
- xizmat ko'rsatish sohalarida sifatning pastligi kabi omillar aniqlandi.

Shu bilan birga O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va xavflar tahlil qilinib, 4-jadvalga tushurildi.

4-jadval: O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va xavflar tahlili (SWOT)

| Kuchli tomonlar | Kuchsiz tomonlar |
|---|---|
| Takrorlanmas madaniy meros yodgorliklari, rang-barang tabiat.<br>O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi.<br>Mamlakatda yashovchi xalq va elatlarning o'ziga xos madaniyati.<br>Ochilmagan turizm yo'nalishlarining mavjudligi.<br>Har bir hududning o'ziga xos turizm turlariga ixtisoslashuvi.<br>Arxeologik manbalar va tabiiy sharoitlarni taklif qilish imkoniyatlarining mavjudligi.<br>Diniy bag'rikenglik siyosati.<br>Mehmondo'st mahalliy aholi.<br>Salohiyatli ishchi kuchi.<br>Mamlakatda tinchlik va barqarorlik.<br>Davlat tomonidan turizm sohasinining qo'llab-quvvatlanishi. | Xalqaro va ichki transport infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, turistlar uchun maqbul narxlar takliflari kamligi, yo'llar ta'mir talabligi.<br>Yo'l bo'yi va turizm infratuzilmasini rivojlan-tirish zarurligi, xizmat sifatining pastligi.<br>Turizm bozorida nomavsumiy davrlarning mavjudligi va buning uchun turizm mahsulotlari taklifining kamligi.<br>Malakali xizmatchi, gid va menejerlarning yetishmasligi.<br>Sohani raqamlashtirish va internet tarmog'ini tashkil qilish yoki sifatini yaxshilash. |
| **Imkoniyatlar** | **Xavflar** |
| O'zbekistonning jahon hamjamiyatida nufuzini oshib borishi orqali xorijiy turistlarni jalb qilish.<br>O'zbekistonning qo'shni davlatlar uchun yirik turizm bozori ekanligi.<br>Xorijiy davlatlar aviatashuvchilari bilan samarali muzokaralar olib borish orqali transport bilan bog'liq masalani hal qilish.<br>Mamlakatda yirik turizm loyihalarini amalga oshirish va turli toifadagi turistlar uchun yangi mahsulotlar yaratish.<br>Maqbul narxlarda turizm mahsulotlari yaratish orqali ichki turistlar oqimini oshirish. | Iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning yomonlashuvi.<br>Afg'onistonning mintaqadagi barqarorlikka ta'siri.<br>Ayrim davlatlardagi iqtisodiy inqiroz.<br>Global epidemiya va xorijiy davlatlardagi turli kasalliklarning tarqalishi.<br>Ko'pchilik qo'shni va hududdagi davlatlarni ham turizm sohasini rivojlantirishni kunning dolzarb mavzusi sifatida qarayotganligi va ularning rivojlantirish dasturiga egaligi. |

Sohani tahlil qilish natijasida, global trendlarning ta'siri o'rganilib, mamlakatda turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

I. Havo, temir yo'l hamda avtoyo'l tarmoqlarini rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash;

II. Turistlarga qo'shimcha xizmatlar taqdim etish, xizmatlar sifatini oshirish va xizmat ko'rsatish standartlarini yaxshilash;



IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

III. Xizmat ko'rsatish madaniyati va kadlar malakasini oshirish;

IV. Marketingni kuchaytirish va sohada brendlarni shakllantirish.

Mazkur omillar mamlakatimizga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar oqimi, turizm xizmatlari eksporti va sohani qayta tiklanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, № O'RQ–549 // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF–4861-sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PQ–2666-sonli "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ–3217-sonli 2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori // www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 189-sonli "Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori // www.lex.uz.
6. Eshtayev A. "Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi" T.: Fan, 2011. – 280 b.
7. Eshtayev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezislari to'plami Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011 yil 20 dekabr
8. Eshtayev A. "Turistik xizmatlarni benchmarking qilish asosida sohaning raqobatbardoshligini oshirish" J. "Iqtisodiyot va ta'lim"T. 2011, № 5 80–83 b.
9. Eshtayev A. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari" J. "Birja Ekspert" T. 2011, № 9–10 36–38 b.
10. Eshtayev A. "Strengthening Competitiveness of international tourism industry in Uzbekistan"Tourism for development. A strategic approach. Editors: Prof Sandeep Kulshreshtha. Prof S. P. Bansal. Bharti Publications. Delhi. 2012. Pp 522–524.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.